

26 fevral 2026 yil
12/13-son

“TASDIQLAYMAN”
Toshkent viloyati Kambag‘allikni
qisqartirish va bandlik boshqarmasi
boshlig‘i



Z.Yo‘ldashov

Qibray tuman “Fayzobod” maxallasiga biriktirilgan xokim yordamchisi
Qo‘chqorov Shukriddin Xusniddin o‘g‘lining sodir etgan korrupsiyaviy
jinoyati va uning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida o‘tkazilgan ZOOM
yig‘ilishi BAYONI

2026-yil 25 fevral

Nurafshon shahar

Raislik qildi: Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i Z.Yo‘ldashov

Ishtirok etdi: Toshkent viloyati Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosarlari, bo‘lim boshliqlari va xodimlari Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish tuman (shahar) bo‘limi rahbarlari

KUN TARTIBI:

1. Qibray tuman “Fayzobod” maxallasiga biriktirilgan xokim yordamchisi Qo‘chqorov Shukriddin Xusniddin o‘g‘lining sodir etgan korrupsiyaviy jinoyati va ularning kelib chiqish sabablari to‘g‘risida

(Z.Yo‘ldashov, S.Raximov, Ch.Namazova, B.Xamitova, M.Salimov, F.Axmadxanova)

Yig‘ilishda kun tartibidagi masala bo‘yicha boshqarma boshlig‘i Z.Yo‘ldashovning ma‘ruzasi tinglandi.

2026-yilda “Favqilotda korrupsiyaga qarshi kurashish yili” deb e‘trof etilganligi korrupsiyaga qarshi kurashishni dolzarbligini va korrupsiyani bartaraf etmasdan turib rivojlanish bo‘lmashligini agalatadi.

Qibray tumanida sodir etilgan korrupsiyaviy xolatni hozirgi kundagi siyosatni tushunmagan va “gumroh” shaxs tomonidan sodir etilganligiga tenglashtirish mumkun, “Fayzobod” maxallasiga biriktirilgan xokim yordamchisi Qo‘chqorov

Shukriddin Xusniddin o'g'li Davlat zaxirasidagi yerni tanishlari orqali soxta xujjatlar asosida rasmiylashtirib berishni vada qilib talabgordan 10 000 (o'n ming) AQSh dollarni olgan vaqtda DXX xodimlari tomonidan qo'lga olinganligi achinarli holatligini gapirib o'tdi.

Sh.Qo'chqorov 2023-yildan ushbu maxallada xokim yordamchisi lovozimida ishlasligi, ikki nafar voyaga yetmagan farzandi borligi va ularning kelgusi hayotida ushbu sodir etilgan jinoyatning oqibatlarini hech-qanday oqlab bo'lmasligini achinish bilan gapirib o'tdi.

2025-yilda bir joyda ikki yildan ortiq ishlagan xokim yordamchilarini rotatsiya qilish zarurligi to'g'risida bir-necha bor xat berganligiga qaramay ushbu xodim rotatsiya qilinmagan va shuningdek doyimiy ravishda "Odob-ahloq qoidalari"ni buzib kelganligi shuningdek joriy yilning 2-fevralidaxam undan tushuntirish olinganligiga qaramay to'g'ri xulosa chiqarmaganligi achinoarli xolatdir.

bu holatlarni atroflicha muxakoma qilish zarurligini,tizimda bunday holatlarini oldini olish uchun raxbarlarga har-bir xodim bilan yuzma-yuz muloqat o'tkazish zarurligini aytib o'tdi va "odob-ahloq qoydalari" doyrasida yig'ilish o'tkazish zarurligini, ko'rilgan choralar to'g'risida qo'shimcha ma'lumot berish vazifasini berdi.

Yuqoridagilarga asosan yig'ilish,

QAROR QILADI:

1. Qibray tuman "Fayzobod" maxallasiga biriktirilgan xokim yordamchisi Qo'chqorov Shukriddin Xusniddin o'g'lining sodir etgan korrupsiyaviy jinoyati va uning kelib chiqish sabablari to'g'risida o'tkazilgan ZOOM yg'ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini taminlash.

2. Maxallalarga biriktirilgan hokim yordamchilarini ishga olishda ularning ilgari korrupsion jinoyat sodir etgan-etmaganligi to'g'risida ma'lumotlar olishni yo'lga qo'yish.

3. Bir joyda ikki yildan ortiq ishlagan hokim yordamchilarini rotatsiya qilish choralarini ko'rish.

4. Kelgusida bu kabi holatlarning oldini olish uchun xodimlarning huquqiy ongini rivojlantirish maqsadida o'quv smenarlari tashkil qilish.

Bayonlashtirdi



M.Salimov